O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.B.01.15 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ERGASHEVA XILOLAXON ERKINJONOVNA

FARG‘ONA VODIYSI AYRIM SUV OMBORLARI ALGOFLORASI VA ULARNING SUV EKOLOGIYA- SANITARIYA HOLATINI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI

03.00.16- Gidrobiologiya, 03.00.05 – Botanika

Biologiya fanlari doktori (DSc.) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent- 2026

UO‘K: 582.26:574.5(575.1)

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Ergasheva Xilolaxon Erkinjonovna
Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari algoflorasi va ularning suv ekologiya- sanitariya holatini baholashdagi ahamiyati…… 3

Эргашева Хилолахон Эркинжоновна
Альгофлора некоторых водохранилищ Ферганской долины и её значение в оценке экологического и санитарного состояния вод. 29

Ergasheva Khilolakhon Erkinjonovna
Algoflora of certain reservoirs in the Fergana valley and its significance in assessing the ecological and sanitary condition of reservoir water……. 57

E’lon qilingan nashrlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……..... 61

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.B.01.15 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ERGASHEVA XILOLAXON ERKINJONOVNA

FARG‘ONA VODIYSI AYRIM SUV OMBORLARI ALGOFLORASI VA ULARNING SUV EKOLOGIYA- SANITARIYA HOLATINI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI

03.00.16- Gidrobiologiya, 03.00.05 – Botanika

Biologiya fanlari doktori (DSc.) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent- 2026

Biologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/B284 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Alimjanova Xolisxon** biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Kamilov Baxtiyar Ganiyevich** biologiya fanlari doktori, professor
	Mavlonov Xudargan biologiya fanlari doktori, professor
	Naraliyeva Nasibaxon Mamanovna biologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.B.01.15 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026 yil «04» dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi 4-uy, O‘zbekiston Milliy universitetining Biologiya va ekologiya fakulteti binosi, 2 qavat, 203-xona. Tel.: +99871 227-15-44).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (314-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi 4-uy, Tel.: (+99871) 246-67-72.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «20» noyabr kuni tarqatildi.
(2026 yil «20» noyabrdagi 25-raqamli reyestr bayonnomasi).

X.S.Eshova
Ilmiy daraja beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, biologiya fanlari doktori, professor

J.A.Mirzayev
Ilmiy daraja beruvchi bir martalik Ilmiy kengash kotibi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

B.T.Jobborov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rais o‘rinbosari, biologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (Fan doktori DSc. dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda chuchuk suv resurslarini muhofaza qilish, ularning ekologik holatini baholash va biologik monitoring tizimlarini takomillashtirish global ahamiyatga ega ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Suningdek, suv havzalari algoflorasining tarkibi va funksional xususiyatlarini o‘rganish nafaqat biologik xilma-xillikni saqlash, balki ichimlik suvi ta’minoti, irrigatsiya va ekologik xavfsizlikni ta’minlashning muhim ilmiy asosi sifatida qaralmoqda. Aholi sonining ortishi, sanoat va qishloq xo‘jaligi faoliyatining kengayishi, iqlim o‘zgarishi hamda antropogen bosimning kuchayishi natijasida suv ekotizimlarining tabiiy muvozanati izdan chiqmoqda. Shu sababli suv havzalarining ekologik holatini ishonchli baholashda suvo‘tlar, ayniqsa indikator-saprob turlar asosida bioindikatsiya usullaridan foydalanish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda bioindikatsion tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri algologik tadqiqotlar hisoblanadi. Zamonaviy algologik tadqiqotlarda suv havzalari algoflorasini kompleks, taksonomik, ekologik, saprobiologik xususiyatlari va gidrokimyoviy omillar bilan o‘zaro bog‘liqligi asosida suv havzalarining ekologik holatini baholash bo‘yicha turli yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, ilmiy izlanishlar antropogen omillar ta’siri kuchli bo‘lgan yirik suv havzalaridagi algofloralar holatini aniqlash hamda ularning transformatsiyasi darajasini baholashni talab etmoqda. Bu o‘rinda, suv omborlari algoflora turlariga boyligi, ularning hayotiy shakllariga ko‘ra xilma xilligi, reofil va limnofil guruhlarni o‘zida saqlaganligi, turli ekologik guruhlarga mansub turlarning mavjudligi bilan suv havzalari orasida alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Biroq, turli tabiiy-geografik hududlarda joylashgan suv omborlari uchun algofloraning hududiy differensiallashuvi, indikator-saprob turlarining ekologik qiymati va ularning suv sifati monitoringidagi ahamiyatini aniqlash masalalari hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Shu jihatdan, Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining taksonomik tarkibi va ularnig suvni ekologik-sanitariya holatini baholashdagi rolini chuqur o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv obyektlarining ekologik barqarorligini ta’minlash va biologik monitoring tizimini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mamlakatda suv resurslarini boshqarish, ekologiya, qishloq xo‘jaligi, baliqchilik va irrigatsiya yo‘nalishlarida suv havzalarining sifat ko‘rsatkichlarini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan dasturiy chora-tadbirlar asosida suv havzalarining antropogen ifloslanish manbalari va ko‘lami aniqlanib, ularni kamaytirish hamda suvo‘tlaridan oqava suvlarni tozalash amaliyotida foydalanish bo‘yicha muayyan natijalarga erishildi. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida[1] suv manbalarini muhofaza qilish va aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlashni tubdan yaxshilash, irrigatsiya tarmoqlari

[1] O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning “Taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni.

obyektlarini rivojlantirish vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda suv omborlari algoflorasining zamonaviy taksonomik tarkibini aniqlash, indikator-saprob turlarining tarqalish qonuniyatlarini o‘rganish hamda ularning suv ekologiya-sanitariya holatini baholashdagi imkoniyatlarini ochib berish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 23- noyabrdagi PF-199-son “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, Yashil makon-umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 5- yanvardagi PQ-5-son “Suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi PF-74-son “Suv xo‘jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15- avgustdagi PQ-250-son “O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025-2028-yillarga mo‘ljallangan dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026- yil 16- fevraldagi PF-21-son “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.

Suv ekotizimlari algoflorasini o‘rganish va ulardan bioindikatsiya maqsadlarida foydalanish bo‘yicha dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Niderlandiyaning Wageningen University Research suv ekologiyasi va suv sifati monitoringi yo‘nalishida, Shvetsiyaning Uppsala University biologik xilma-xillik hamda evolyutsion ekologiya bo‘yicha, Buyuk Britaniyaning University of Cambridge va University of Oxford esa chuchuk suv ekotizimlari hamda ekologik modellashtirish bo‘yicha muhim ilmiy natijalarga erishgan. Xitoyning Chinese Academy of Sciences tarkibidagi Institute of Hydrobiologyda chuchuk suv suvo‘tlarining taksonomiyasi, ekologiyasi va bioindikatsiyasi bo‘yicha fundamental tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu ilmiy markazlarda olib borilgan izlanishlar suv havzalarining ekologik holatini biologik indikatorlar asosida baholashning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xorijiy ilmiy maktablarda suvo‘tlarning indikatorlik xususiyatlarini aniqlash va suv sifatini baholash metodologiyasini takomillashtirishga alohida e’tibor

qaratilgan. Kolkwitz va Marsson tomonidan ishlab chiqilgan saprobiologik konsepsiya keyinchalik Sladechek, Zelinka va Marvan tomonidan takomillashtirilib, biologik monitoringning xalqaro miqyosda qo‘llaniladigan usullaridan biriga aylantirildi. Van Dam va hammualliflari diatom suvo‘tlarining ekologik afzalliklari va muhit omillariga munosabatini tizimlashtirish orqali ekologik klassifikatsiyaning yangi mezonlarini ishlab chiqdilar. Shuningdek, University of Colorado Boulder, University of Wisconsin-Madison, University of Helsinki hamda University of Copenhagen olimlari tomonidan eutrofikatsiya, iqlim o‘zgarishi va antropogen bosimning algoflora tarkibiga ta’siri bo‘yicha ko‘plab fundamental va amaliy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

So‘nggi yillarda jahon miqyosida olib borilayotgan zamonaviy algologik tadqiqotlarda an’anaviy morfologik-taksonomik va ekologik yondashuvlar bilan bir qatorda, raqamli ma’lumotlar bazalari va bioinformatik yondashuvlardan foydalanish ko‘lami ham kengayib bormoqda. Chinese Academy of Sciences, Wageningen University Research, University of Cambridge va boshqa ilmiy markazlarda ushbu zamonaviy yondashuvlar asosida suvo‘tlarning taksonomik xilma-xilligini o‘rganish, sistematik o‘rnini aniqlashtirish, tarqalish qonuniyatlarini belgilash hamda suv ekotizimlarining ekologik holatini baholashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, AlgaeBase, GBIF va PhycoBank kabi xalqaro ma’lumotlar bazalari taksonomik nomenklaturani standartlashtirish, yangi turlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va global biologik ma’lumotlarni integratsiyalashda muhim platforma vazifasini bajarmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Suv havzalari algoflorasining taksonomik tarkibiga qaratilgan tadqiqotlar horijiy mamlakatlarda V.G. Devyatkin (2000), Reynolds et al. (2006), Z.P. Ogli 2007, Padisak et al. (2009), V. Zarei Darki (2013), E.G.Bellinger, D.C Sigee. (2015), J. Wehr, R. Sheath (2015), O.Jr. Necchi (2016), R.J. Stevenson et al. (2017), J.Seckbach, A.Oren (2019), G. Cristobal et al. (2020), P.M. Sarenko, O.P. Bilous (2021), J.P. Smol (2023), S.Barinova (2025), Yu.A. Tymchenko (2026) hamda boshqa olimlar tomonidan tomonidan olib borilgan. Ular suvo‘tlarning sistematikasi, ekologiyasi, saprobiologiyasi va suv sifatini biologik baholash usullari bo‘yicha fundamental tadqiqotlarni amalga oshirgan. Ushbu izlanishlar natijasida algoflora suv ekotizimlarining ekologik holatini aks ettiruvchi muhim bioindikator sifatida ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

O‘rta Osiyo hududida suvo‘tlar florasini o‘rganish bo‘yicha A.M. Muzaffarov (1968), B.K. Karimova (1971), S.A.Andriyevskaya (1982), Sh.Tajieyv (1984), N.B.Balashova (2011), E.P.Belous (2013), M.T.Boboyev (2013), X.Xisoriyev (2021), S.Nurashov (2024) va boshqa tadqiqotchilar tomonidan turli irrigatsiya tizimlari va suv havzalarining algoflorasi, ekologik xususiyatlari va tarqalish qonuniyatlari o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar mintaqa suvo‘tlarining floristik tarkibini aniqlash, ayrim yangi taksonlarni qayd etish hamda ularning ekologik guruhlarini tavsiflashda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Respublikamizda suv omborlari algoflorasining tarkibiga qaratilgan ishlar kam sonli bo‘lib, asosiy tadqiqotlar A.M. Muzaffarov (1978), A.E. Ergashev (1974), S.Xalilov (1976), A.Xabibullayev (1975), A.A. Temirov (1995) ishlarida

ko‘rsatilgan. Farg‘ona vodiysidagi faqat Karkidon suv ombori algoflorasi bo‘yicha ma’lumotlar A.E. Ergashev (1974) va M.P. Yuldasheva (2025) ishlarida keltirilgan bo‘lib, ular hudud suv omborlari algoflorasining zamonaviy holatini to‘liq ochib bera olmaydi. To‘yintiruvchi suv manbalari xilma-xilligi va maydonining kattaligi bilan ajralib turuvchi Farg‘ona vodiysi suv omborlarida kompleks algologik tadqiqotlar olib borilmagan. Algoflora zamonaviy taksonomik yondashuvlar asosida aniqlanmagan, indikator-saprob turlarining suv ekologiya-sanitariya holatini baholashdagi ahamiyati gidrokimyoviy ko‘rsatkichlar bilan integratsiyalashgan holda tahlil qilinmagan. Suv omborlarining gidrokimyoviy holati O‘zbekiston Respublikasidagi “SanQvaM № 0172-04” normativlari bo‘yicha qiyosiy baholanmagan. Klaster tahlillar asosida suv omborlari algoflorasining floristik differensiallanishi aniqlanmagan. Ushbu dissertatsiya ana shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan. Shu bois, Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasini zamonaviy taksonomik va gidrobiologik yondashuvlar asosida tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti Biologiya kafedrasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Farg‘ona vodiysi bioxilma-xilligini (flora va faunasi, raqamli platformasi, davlat kadastri, muhofazasi, molekulyar tadqiqotlar) kompleks o‘rganish” (2020-2025) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari algoflorasining taksonomik tarkibini aniqlash va ularning suv ekologiya- sanitariya holatini baholashdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari algoflorasining taksonomik tarkibini aniqlash va tahlilini amalga oshirish;

Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari algoflorasini o‘zaro va O‘zbekistonning ayrim suv omborlari algofloralari bilan qiyosiy tahlil etish;

algoflorada turlar tarkibining mavsumiy o‘zgarishlarini tadqiq etish;

algofloraning ekologik guruhlarini aniqlash;

Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlarining gidrokimyoviy tahlilini amalga oshirish;

Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari suv sifatini indikator-saprob suvo‘tlar asosida baholash;

Saprob-indikator suvo‘tlar asosida suv sifatini baholashning bioindikatsion modelini qo‘llash va uni tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlarining algoflorasi.

Tadqiqotning predmeti Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari algoflorasining taksonomiyasi, geografiyasi, gidrobiologiyasi, ekologiyasi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada algologik, gidrobiologik va statistik metodlar, qiyosiy tahlil usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari algoflorasi ilk bor kompleks taksonomik inventarizatsiya qilinib, 9 ta bo‘lim, 19 ta sinf, 39 ta tartib, 80 ta oila, 161 ta turkumga mansub 657 ta tur va tur xillari hamda O‘zbekiston algoflorasi uchun ilgari noma’lum bo‘lgan 12 tur aniqlangan;

UPGMA klaster tahlili asosida Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari algoflorasining floristik differensiallanishi ilk bor aniqlanib, ularning ikki mustaqil floristik klasterdan tashkil topganligi hamda Andijon-Otchopar va Eskiyer-Karkidon suv omborlari mos ravishda eng yaqin floristik birliklarni hosil qilishi asoslangan;

algoflora tarkibidagi turlarning fasllar bo‘yicha almashinishi hamda mavsumiy spetsifik turlarning aniqlanishi natijasida algofloraning mavsumiy dinamikasi ochib berilgan;

Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari algoflorasining ekologik guruhlari tahlil qilinib, hayotiy shakllari bo‘yicha plankton-bentos, haroratga munosabati bo‘yicha mezofil hamda sho‘rlanishga munosabati bo‘yicha chuchuk suvga xos turlarining ustunligi aniqlangan;

Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlarining gidrokimyoviy holati ilk bor asosiy gidrokimyoviy ko‘rsatkichlar asosida tadqiq etilib, suvda erigan kislorod, organik moddalar, KBE_5 va KKE ko‘rsatkichlari asosida baholangan hamda algoflora rivojlanishi uchun qulay gidrokimyoviy sharoit mavjudligi aniqlangan;

Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlarining saprobiologik holati 137 tur saprob-indikator suvo‘tlar asosida baholanib, β-mezosaprob guruhining ustunligi, saproblik indeksining 1,72-1,83 oralig‘ida ekanligi hamda suvlarning 3-sinf, 3a-razryad, β^{I}-1 darajali mezosaprob zonaga mansubligi aniqlangan;

indikator-saprob suvo‘tlar asosida suv sifatini bioindikatsion baholash uchun aralash saproblik kategoriyalarni 0,5:0,5 ulushda taqsimlash tamoyiliga asoslangan ilmiy-metodik yondashuv ishlab chiqilib, uning suv omborlarining ekologik-sanitariya holatini baholashdagi samaradorligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlaridan yig‘ilgan kolleksiya namunalari Botanika institutining “Suvo‘tlar florasi” kolleksiyasiga topshirilgan hamda Botanika institutining “Noyob ob’ektlar” dasturining amaliy faoliyatlarida O‘zbekiston suv havzalari suvo‘tlarining umumiy ro‘yhatini tuzishda, indikator-saprob suvo‘tlar turlari bo‘yicha alohida inventarizatsiya o‘tkazishda qo‘llanilgan;

Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari algoflorasi bo‘yicha yaratilgan ma’lumotlar elektron bazasi “Bioxilma-xillik bo‘yicha ma’lumotlarning global tizimi”ga kiritilgan (Global Biodiversity Information Facility, www.gbif.org) hamda suv havzalari algofloralarining xalqaro yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish va monitoringini amalga oshirishda qo‘llanilgan;

indikator-saprob suvo‘tlar asosida suv sifatini bioindikatsion baholashda aralash saproblik guruhlarni ulushli (0,5 : 0,5) taqsimlash tamoyiliga asoslangan ilmiy-metodik yondashuv ishlab chiqilib, uning suv omborlarining ekologik-sanitariya holatini baholashdagi qo‘llash imkoniyatlari va samaradorligi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida klassik va zamonaviy

usullarning qo‘llanilganligi, tahlillar asosida olingan natijalarning nazariy ma’lumotlarga muvofiqligi, ular asosida olingan natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda e’lon qilinganligi, olingan ma’lumotlarning Microsoft Excel dasturi yordamida statistik qayta ishlanganligi hamda flora o‘xshashlik koeffitsienti Sorensen-Chekanovskiy formulasi asosida aniqlanganligi va UPGMA klaster tahlili asosida baholanganligi, dissertatsiya tadqiqotining amaliy natijalarining vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk bor Farg‘ona vodiysi suv ombori algoflorasining turlar tarkibi aniqlanib, to‘liq inventarizatsiya qilinganligi, O‘zbekiston algoflorasi uchun ilgari noma’lum bo‘lgan turlarni qayd etilganligi, suv omborlari algoflorasi turlar tarkibining qiyosiy ochib berilganligi, saproblik indeksi va gidrokimyoviy ko‘rsatkichlarni kompleks qo‘llash orqali Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlarining ekologik-sanitariya holati baholanib, ularning 3-sinf (qoniqarli toza), 3 a-razryad va β-I mezosaprob zonaga mansubligi ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlaridan yig‘ilgan algologik namunalar “Suvo‘tlar florasi” kolleksiyasi “Noyob ob’ektlar” fondini boyitishga, O‘zbekiston suv havzalari suvo‘tlarining umumiy ro‘yhatini tuzishga hamda yaratilgan ma’lumotlar elektron bazasi suvo‘tlarning antropogen ta’sir transformatsiyasini ochiqlashga, suv havzalari algofloralarining xalqaro yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish va monitoringini amalga oshirishga, shuningdek, indikator- saprob guruhlar bo‘yicha ulushli (0,5:0,5) taqsimlash tamoyiliga asoslanib tavsiya etilgan ilmiy-metodik yondashuvsuv suv sifatini bioindikatsion, obyektiv va ishonchli baholashga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari algoflorasini tadqiq qilish doirasida olingan natijalar asosida:

Farg‘ona vodiysi suv omborlaridan aniqlangan 657 turdan iborat ma’lumotlar elektron bazasi “Bioxilma-xillik bo‘yicha ma’lumotlarning global tizimi”ga kiritilgan (GBIF, www.gbif.org, 2025- yil 29- iyuldagi № 049 son guvohnomasi). Ilmiy natijalar suv havzalari algofloralarining xalqaro yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish va monitoringini amalga oshirish imkonini bergan;

Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlaridan yig‘ilgan 100 ta algologik kolleksiya namunalari va aniqlangan 657 turning zamonaviy konsperti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutining “Suvo‘tlar florasi” kolleksiyasiga topshirilgan. Mazkur institutining “Noyob ob’ektlar” dasturining ilmiy hisobotlarida va O‘zbekiston suv havzalari suvo‘tlarining umumiy ro‘yhatini tuzishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 22- avgustdagi № 4/1255-2042 son ma’lumotnomasi). Natijada algologik namunalar “Suvo‘tlar florasi” kolleksiyasi xususan, “Noyob ob’ektlar” fondini boyitgan. Taqdim qilingan suvo‘tlarning ro‘yhatli konspekti Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari algologik tarkibiga aniqlik kiritish, suvo‘tlarning antropogen ta’sir transformatsiyasini ochiqlash, mavsumiy spetsifik turlarni ajratish va

indikator turlar orqali suv havzalarining saproblik zonalarini belgilash imkonini bergan;

Farg‘ona vodiysidagi Eskiyer, Karkidon, Qo‘rg‘ontepa, Asaka-adir, Otchopar va Andijon suv omborlari algoflorasi turlar tarkibining to‘liq inventarizatsiyasi asosida aniqlangan 657 turning zamonaviy konspekti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti FZ-2020092812 raqamli “O‘zbekistonda baliqchilik xo‘jaligining rivojlanishini nazariy jihatdan asoslash uchun gidrobiontlarning populyatsion fenotipik xilma-xilligi va adaptiv salohiyatini o‘rganish” mavzusidagi fundamental loyihasining ilmiy-tadqiqot ishlarida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025- yil 26-avgustdagi № 4/1255-2079 son ma’lumotnomasi). Natijada baliqlar, sodda suv hayvonlari, zooplanktonlar uchun ozuqa bo‘luvchi suvo‘tlari ro‘yhati, algoflora turlar tarkibining yil mavsumlari davomidagi dinamikasi ko‘rsatkichlari, suvo‘tlar tallomidagi moslashuvchanlik belgilari tavsifi gidrobiontlarning populyatsion fenotipik xilma-xilligini baholash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 32 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan, 12 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, yetti bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 197 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob’ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Algologik tadqiqotlarning tahlili, tadqiqot metodlari va Farg'ona vodiysi suv omborlarining tabiiy-geografik tavsifi”** deb nomlangan bo’lib 3 ta bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘lim adabiyotlar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, horijiy mamlakatlar, O‘rta Osiyo hududida va O‘zbekistonda suv omborlarining algoflorasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning qisqacha sharhi yoritilgan.

Mazkur bobning **ikkinchi bo‘limda** tadqiqot obyekti va metodlari keltirilgan. Dissertatsiyada algologik, gidrobiologik va statistik metodlar, qiyosiy tahlil usullari qo‘llanilgan. Taksonomik birliklar suvo’tlarining alohida bo‘limlar bo'yicha nashr etilgan 14 tomdan iborat aniqlagichlar va 3 tomli “Определителю синезелёных водорослей Средней Азии” hamda boshqa aniqlagichlar

Muzafarov A.M., Ergashev A., Xalilov S. (1988); Xalilov S. va boshq. (2014) asosida aniqlangan, shuningdek, AlgaeBase, GBIF va PhycoBank platformalaridan foydalanilgan. Diatom turlarning doimiy preparatlari V.S. Sheshukova (1949) metodida tayyorlangan. Miqdoriy ma'lumotlar V.G. Vladimirova va V.Ye. Semenenko (1969), biomassa I.V. Makarova va L.O. Pichkili (1970) metodlari asosida, algofloraning saproblik indeksini aniqlash (Si) R. Kolkwitz, M. Marsson (1908, 1909) shkalasi bo'yicha, G.I.Dolgova, Y.Y.Nikitinskiy (1927), V.Sladecek (1961, 1973) larning kiritgan qo'shimchalari, R.Pantle va N.Buck (1955) formulasidan foydalanilgan. Suvning saproblik zonasi va sifatiga ko'ra sinflari V.N. Jukinskiy va b. (1981) metodi asosida aniqlangan. Suvo'tlarining uchrash darajasini aniqlashda gidrobiologiyada qabul qilingan 9 balli shkaladan foydalanilgan. Turlar tarkibidagi FO'K P.Jakkard (K_j) (1912) va T.Sorensen (1948), J.Czekanovskiy (1913) formulalari asosida aniqlangan.

Bobning uchinchi bo'limda "**Farg'ona vodiysi suv omborlarining tabiiy-geografik tavsifi"** ya'ni tadqiqotning hududlari- Namangan viloyatidagi Eskiyer suv ombori, Farg'ona viloyatidagi Karkidon va Qo'rg'ontepa suv omborlari hamda Andijon viloyatidagi Andijon, Asaka-adir va Otchopar suv omborlarining tabiiy-geografik tavsifi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Farg'ona vodiysi suv omborlari algoflorasining taksonomik tahlili"** deb nomlangan bo'lib 9 ta bo'limdan iborat. Bobning birinchi bo'limida suv omborlari algoflorasining taksonomik spektri berilgan. Farg'ona vodiysi suv omborlari algoflorasi yuqori taksonomik xilma-xillik bilan tavsiflanib, 657 ta tur va tur xillari aniqlandi. Ular 9 bo'lim, 19 sinf, 39 tartib, 80 oila, 161 turkum, 620 tur, 26 variatsiya va 11 formadan iborat (1-jadval).

1-jadval

Farg'ona vodiysi ayrim suv omborlari algoflorasining taksonomik tahlili (2014-2025- yillar)

№	Bo'limlar	Taksonomik birliklar soni								
		sinf	tartib	oila	turkum	tur	variatsiya	forma	jami	% hisobida
1	Cyanophyta	3	7	22	39	155	1	8	164	25%
2	Rhodophyta	1	1	1	1	1	-	-	1	0,15%
3	Xanthophyta	2	2	2	2	5	-	-	5	0,7%
4	Chrysophyta	2	3	4	4	10	1	-	11	1,7%
5	Bacillario-phyta	2	11	20	40	198	15	-	213	32,4%
6	Dinophyta	1	1	1	3	18	2	3	23	3,5%
7	Euglenophyta	2	2	3	7	39	-	-	39	6%
8	Chlorophyta	5	11	26	64	191	7	-	198	30%
9	Charophyta	1	1	1	1	3	-	-	3	0,5%
	Jami:	19	39	80	161	620	26	11	657	100%

Taksonomik tuzilmaning umumiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, dominant bo‘limlar (87,52%) Bacillariophyta, Chlorophyta va Cyanophyta; subdominant bo‘limlar (11,11%) Euglenophyta, Dinophyta va Chrysophyta; kam uchrovchi bo‘limlar (2,04%) Xanthophyta, Charophyta va Rhodophyta hissasiga to‘g‘ri keldi. Nisbatan kam ulushga ega bo‘lgan bo‘limlar umumiy floristik fondning kichik qismini tashkil etgan bo‘lsa-da, ularning qayd etilishi algofloraning taksonomik tarkibi keng qamrovli ekanligini ko‘rsatadi.

Aniqlangan 657 ta tur asosida algofloraning taksonomik murakkablik darajasi hisoblandi: tur/oila nisbati - 657/80 = 8,21; tur/turkum nisbati 657/161 = 4,1; turkum/oila - 161/80 = 2; tartib/sinf - 39/19 = 2,05. Tahlil natijalariga ko‘ra, aniqlangan 657 tur va tur xillari 161 turkum tarkibida taqsimlangan bo‘lib, bir turkumga o‘rtacha 4,1 tur to‘g‘ri keldi, shuningdek, 80 oila va 161 turkum orasidagi nisbat (2 turkum/oila) floristik tarkibning o‘rta-yuqori taksonomik murakkablikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining taksonomik tarkibi barcha taksonomik kategoriyalar bo‘yicha tahlil qilindi (2- jadval).

2- jadval

Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining taksonomik tarkibi (barcha taksonomik kategoriyalar bo‘yicha)

Suv omborlari	Bo‘limlar soni	Sinflar soni	Tartiblar soni	Oilalar soni	Turkumlar soni	Turlar soni	Variat-siya soni	Forma soni	Jami
Andijon	8	14	31	61	124	425	10	9	444
Eskiyer	7	10	25	44	75	252	5	10	267
Karkidon	6	10	20	36	65	174	8	4	186
Qo‘rg‘on-tepa	9	17	35	71	134	309	18	5	332
Asaka-adir	6	11	26	52	106	237	3	2	242
Otchopar	7	14	31	58	98	249	7	4	260

Taksonomik xilma-xillik Qo‘rg‘ontepa suv omborida yuqori bo‘lib, 9 ta bo‘lim, 17 ta sinf, 35 ta tartib, 71 ta oila va 134 ta turkum, Andijon suv omborida esa mos ravishda 8, 14, 31, 61 va 124 ta qayd etildi. Jami turlar soni Andijon s.o.da 444 ta, Qo‘rg‘ontepa s.o.da 332 ta bo‘lishiga qaramay, Qo‘rg‘ontepa s.o.da yuqori taksonomik kategoriyalar xilma-xilligi kengroq namoyon bo‘ldi. Eskiyer (252 ta takson) va Otchopar (260 tur) suv omborlari o‘rtacha taksonomik boylikka ega bo‘lib, Asaka-adir (242 tur) va Karkidon (186 tur) suv omborlarida taksonlar soni nisbatan kamroq bo‘lsa-da, ularda ham 6-7 ta bo‘lim vakillarining uchrashi algofloraning murakkab sistematik tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Infraspesifik taksonlar tahlili Cyanophyta (2-8 forma), Bacillariophyta (1-12 variatsiya), Chlorophyta (1-6 variatsiya) va Dinophyta (1-2 variatsiya, 1-3 forma) bo‘limlarida variatsiya hamda formalar nisbatan ko‘proq uchrashini ko‘rsatdi.

Ikkinchi bo'lim **algofloraning yetakchi taksonlariga** bag'ishlangan. Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining yetakchi taksonlari (sinf, tartib, oila, turkum, tur) aniqlandi va tahlil qilindi. Shundan yetakchi oila va turkumlar bo‘yicha olingan natijalar keltirildi. Yetakchi 10 ta oilaning ulushi suv omborlari bo‘yicha 40,06-50,53 % ni tashkil etishi ularning algoflora tarkibida taksonomik ustun mavqega ega ekanligini va suv omborlari algoflorasining asosiy taksonomik negizini shakllantirishini ko‘rsatdi (3- jadval). Ushbu ko‘rsatkich Karkidon suv omborida eng yuqori (94 tur, 50,53 %), Qo‘rg‘ontepa suv omborida esa eng past (133 tur, 40,06 %) qayd etildi.

3- jadval

Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasi tarkibining yetakchi oilalari

Oilalar	Andijon s.o.		Eskiyer s.o.		Karkidon s.o.		Qo‘rg‘on-tepa s.o.		Asaka-adir s.o.		Otchopar s.o.	
	t.s.	%	t.s.	%	t.s.	%	t. s.	%	t.s.	%	t. s.	%
Cyanophyta												
Oscillatoriaceae	60	13,51	23	8,61	21	11,29	34	10,17	19	7,85	41	15,70
Bacillariophyta												
Naviculaceae	14	3,15	7	2,62	8	4,3	10	3,01	10	4,13	8	3,07
Coscinodiscaceae	15	3,38	15	5,62	10	5,37	13	3,9	9	3,72	10	3,84
Fragilariaceae	11	2,47	9	3,37	8	4,30	8	2,39	7	1,89	9	3,44
Nitzschiaceae	27	6,08	7	2,62	3	1,61	6	1,79	11	4,54	6	2,29
Euglenophyta												
Euglenaceae	16	3,60	13	4,86	7	3,76	16	4,79	10	4,13	3	1,14
Chlorophyta												
Oocystaceae	22	4,95	17	6,34	18	9,67	18	5,38	12	4,95	12	4,59
Desmidiaceae	20	4,50	-	-	-	-	11	3,29	13	5,37	6	2,29
Ankistrodesmaceae	8	1,80	8	2,99	8	4,30	4	1,2	4	1,65	3	1,6
Scenedesmaceae	25	5,63	9	3,37	11	5,91	13	3,89	10	4,13	15	5,74
Jami:10	218	49,1	108	40,44	94	50,53	133	40,06	105	43,38	113	43,46

Andijon, Eskiyer, Asaka-adir va Otchopar suv omborlarida yetakchi oilalarning ulushi mos ravishda 49,10 %, 40,44 %, 43,38 % va 43,46 % ni tashkil etdi. Yetakchi oilalar orasida *Oscillatoriaceae* nisbatan yuqori ulush bilan ajralib turdi, turlar soni 19-60 ta, ulushi esa 7,85-15,70% oralig‘ida o‘zgardi. Shuningdek, *Oocystaceae* (4,59-9,67), *Scenedesmaceae* (3,37-5,91), *Coscinodiscaceae* (3,38 -

5,62), *Naviculaceae* (2,62-4,3), *Nitzschiaceae* (1,61-6,08) va *Euglenaceae* (1,14-4,86) oilalari ham algofloraning muhim qismini tashkil etdi.

Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasida yetakchi 13 ta turkum umumiy tur tarkibining 27,40-37,09 % ini tashkil etdi (4-jadval). Ularning ulushi Karkidon suv omborida eng yuqori (69 tur, 37,09 %), Qo‘rg‘ontepa suv omborida esa eng past (91 tur, 27,40 %) qayd etildi.

4- jadval


Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasi tarkibining yetakchi turkumlari

Turkumlar	Andijon s.o.		Eskiyer s.o.		Karkidon s.o.		Qo‘rg‘ontepa s		Asaka-adir s.o.		Otchopar s.o.	
	t. s.	%	t.s	%	t.s	%	t. s.	%	t.s.	%	t.s	%
Cyanophyta												
Oscillatoria	23	5,18	16	5,99	15	8,06	13	3,89	8	3,30	17	6,51
Phormidium	14	3,15	4	1,49	2	1,07	9	2,69	5	2,06	9	3,44
Lyngbya	13	2,92	3	1,12	3	1,61	6	1,79	3	1,23	9	3,44
Anabaena	7	1,57	9	3,37	2	1,07	3	0,9	2	0,82	3	1,15
Bacillariophyta												
Navicula	14	3,15	7	2,62	8	4,30	10	2,99	10	4,13	8	3,06
Cymbella	8	1,80	3	1,12	2	1,07	10	2,99	4	1,65	5	1,91
Nitzschia	10	2,25	6	2,24	3	1,61	5	1,49	10	4,13	5	1,91
Synedra	10	2,25	5	1,87	5	2,68	8	2,39	6	2,47	8	3,06
Euglenophyta												
Euglena	8	1,80	9	3,34	5	2,68	7	2,09	6	2,47	9	3,44
Phacus	7	1,57	9	3,37	2	1,07	3	0,9	4	1,65	6	2,3
Chlorophyta												
Pediastrum	7	1,57	5	1,87	7	3,76	6	1,8	4	1,65	5	1,92
Ankistrodes-mus	8	1,80	8	2,99	8	4,30	4	1,2	4	1,65	3	1,15
Scenedes-mus	8	1,80	6	2,24	7	3,76	7	2,09	6	2,47	8	3,06
Jami:13	137	30,85	90	33,7	69	37,09	91	27,40	72	29,75	95	36,53

Andijon, Eskiyer, Asaka-adir va Otchopar suv omborlarida yetakchi turkumlarning ulushi mos ravishda 30,85 %, 33,70 %, 29,75 % va 36,53 % ni tashkil etdi. Yetakchi turkumlar orasida *Oscillatoria* barcha suv omborlarida nisbatan yuqori ulushda bo‘lib, uning hissasi 3,30-8,06 % oralig‘ida o‘zgardi. Shuningdek, *Navicula* (2,99-4,30 %), *Ankistrodesmus* (1,15-4,30 %), *Scenedesmus* (1,80-3,76 %), *Synedra* (1,87-3,06 %), *Euglena* (1,80-3,44 %), *Phormidium* (1,07-3,44 %) turkumlari ham algofloraning muhim qismini tashkil etdi.

Bobning uchinchi qismida **Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining 9 ballik shkala bo‘yicha uchrash darajalari** tahlili kelrilgan (1-rasm). Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining 9 ballik shkala bo‘yicha uchrash darajalari tahliliga ko‘ra, 5 ballik (tez-tez uchraydigan) turlar soni 57-134 ta oralig‘ida, 7 ballik (ko‘p uchraydigan) turlar 48-116 ta oralig‘ida bo‘lib, ushbu

guruhlar asosiy qismini tashkil etishini, 1 ballik (bir dona) turlar 14-50 ta hamda 9 ballik (juda ko‘p, massa) turlar 17-40 ta oralig‘ida qayd etilib, nisbatan cheklangan ulushga ega ekanligini ko‘rsatadi. 9 ballik uchrash shkalasi nafaqat algofloraning tarqalishini tavsiflash, balki dominant va kam uchraydigan taksonlarni ajratish, ekologik barqarorlik darajasini baholashda muhim bioindikatsion mezon sifatida xizmat qiladi.



1-rasm. Farg‘ona vodiysi suvomborlari suvo‘tlarining uchrash darajalari (h=1-9 ball) bo'yicha turlar soni

Bobning to‘rtinchi qismida **Eskier suv ombori algoflorasining taksonomik tahlili** yoritilgan. Eskiyer suv ombori algoflorasini tarkibida 267 tur va tur xillari aniqlandi. Ular 7 bo‘lim, 10 sinf, 24 tartib, 44 oila, 75 turkum, 252 tur, 5 variatsiya va 10 formadan iborat. Eskiyer suv ombori algoflorasining asosiy qismini Bacillariophyta 76 tur (28,46%), Chlorophyta 73 tur (27,34%) va Cyanophyta 60 tur (22,47%) bo‘limlari tashkil etib, ular 209 tur, 78,27% ni o‘z ichiga oldi. Qolgan Euglenophyta 26 tur (9,74%), Dinophyta 18 tur (6,74%), Chrysophyta 10 tur (3,75%) va Xanthophyta 4 tur (1,50%) bo‘limlari esa birgalikda 21,73% ni tashkil etdi. Tartiblarda bo‘yicha Euglenales 26 tur (9,74%), Chroococcales va Oscillatoriales 23 tadan (8,61%), Chlorococcales 22 tur (8,24%), oilalar kesimida *Oscillatoriaceae* 23 tur (8,61%), *Peridiniaceae* 18 tur (6,74%), *Oocystaceae* 16 tur (5,99%) va *Coscinodiscaceae* 15 tur (5,62%), turkumlarda *Oscillatoria* 16 tur (5,99%), *Euglena* va *Phacus* 9 tadan tur (3,37%), *Ankistrodesmus* va *Anabaena* 8 tadan tur (2,99%), *Navicula* 7 tur (2,62%) bilan ustunlik qildi. Eskiyer suv ombori algoflorasi tarkibida O‘zbekiston algoflorasi uchun birinchi marta quyidagi 2 tur qayd etildi: *Coelosphaerium confertum* West & G.S.Wes, *Gomphosphaeria naegeliana* (Unger) Lemmermann =*Woronichinia naegeliana* (Unger) Elenkin.

Bobning beshinchi qismida **Karkidon suv ombori algoflorasining taksonomik tahlili** yoritilgan. Karkidon suv ombori algoflorasini tarkibida 186 tur va tur xillari aniqlandi. Ular 6 bo‘lim, 10 sinf, 20 tartib, 35 oila, 65 turkum, 174 tur, 7 variatsiya va 5 formadan iborat. Karkidon suv ombori algoflorasining asosiy

qismini Chlorophyta bo‘limi 70 tur (37,63%), Bacillariophyta 52 tur (27,96%) va Cyanophyta 44 tur (23,66%) bo‘limlari tashkil qildi. Ushbu uch bo‘lim jami 166 turni, ya’ni algofloraning 89,25% dan iborat bo‘ldi. Qolgan Euglenophyta 10 tur (5,38%), Dinophyta 6 tur (3,23%) va Chrysophyta 4 tur (2,15%) bo‘limlari esa birgalikda 10,76% ni tashkil etdi. Tartiblar kesimida Chlorococcales 32 tur (17,20%), Oscillatoriales 21 tur (11,29%), Chlorellales 18 tur (9,68%), Naviculales 12 tur (6,45%) va Peridiniales 6 tur (3,23%), oilalardan *Oocystaceae* 18 tur (9,68%), *Oscillatoriaceae* 21 tur (11,29%), *Peridiniaceae* 6 tur (3,23%), *Coscinodiscaceae* 10 tur (5,38%) va *Naviculaceae* 11 tur (5,91%), turkumlar ichida *Oscillatoria* 15 tur (8,06%), *Anabaena* 11 tur (5,91%), *Navicula* 8 tur (4,30%), *Ankistrodesmus* 8 tur (4,30%), *Pediastrum* va *Scenedesmus* 7 tadan tur (3,76%), *Oocystis* 6 tur (3,23%) bilan yetakchilik qildi.

Bobning oltinchi qismida **Qo‘rg‘ontepa suv ombori algoflorasining taksonomik tahlili** yoritilgan. Qo‘rg‘ontepa suv ombori algoflorasini tarkibida 332 tur va tur xillari aniqlandi. Ular 9 bo‘lim, 17 sinf, 35 tartib, 1 tartibcha, 71 oila, 3 oilacha, 134 turkum, 309 tur, 18 variatsiya va 5 formadan iborat. Bu suv ombori algoflorasining asosiy qismini Chlorophyta 105 ta (31,62%), Bacillariophyta 96 ta (28,91%) va Cyanophyta 90 ta (27,11%) tashkil etdi. Ushbu uch bo‘lim 291 ta tur bilan umumiy algofloraning 87,65% qismini egalladi. Qolgan bo‘limlar nisbatan kam ulushda: Euglenophyta 19 ta (5,72%), Dinophyta 11 ta (3,31%), Chrysophyta 4 ta (1,20%), Xanthophyta va Charophyta 3 tadan (0,90%), Rhodophyta 1 tur (0,30%) aniqlandi. Turkumlardan turlar soniga ko‘ra: *Navicula* va *Cymbella* (10 tadan tur), *Synedra* (8 tur), *Cyclotella* (7 tur), *Gomphonema* (6 tur), *Nitzschia* (5 tur), *Scenedesmus* (7 tur), *Pediastrum* (6 tur), *Spirogyra* (6 tur), *Ulothrix* (5 tur), *Oscillatoria* (13 tur), *Phormidium* (9 tur), *Lyngbya* (6 tur) kabilari ustunlik qildi.

Bobning yettinchi qismida **Asaka-adir suv ombori algoflorasining taksonomik tahlili** yoritilgan. Mazkur suv ombori algoflorasini tarkibida 242 tur va tur xillari aniqlandi. Ular 6 bo‘lim, 11 sinf, 26 tartib, 53 oila, 3 oilacha, 106 turkum, 237 tur, 3 variatsiya va 2 formadan iborat. Asaka-Adir suv ombori algoflorasining asosiy qismini Chlorophyta bo‘limi 93 tur (38,43%), Bacillariophyta 77 tur (31,82%) va Cyanophyta 48 tur (19,83%) bo‘limlari tashkil etdi. Mazkur uch bo‘lim jami 218 tur bilan algofloraning 90,08% dan iborat bo‘ldi. Qolgan bo‘limlardan Euglenophyta 15 tur (6,20%), Dinophyta 7 tur (2,89%) va Chrysophyta 2 tur (0,83%) bilan ifodalandi. Turkumlardan turlar soni jihatidan *Navicula* va *Nitzschia* (10 tadan tur), *Oscillatoria* (8 tur), *Chlamydomonas, Tetraedron, Scenedesmus* va *Euglena* (6 tadan tur), *Phormidium* (5 tur), *Synedra*, *Gomphonema, Cymbella, Pinnularia* hamda *Phacus* (4 tadan tur) ustunlik qildi.

Bobning sakkizinchi qismida **Otchopar suv ombori algoflorasining taksonomik tahlili** yoritilgan. Bu suv ombori algoflorasini tarkibida 260 tur va tur xillari aniqlandi. Ular 7 bo‘lim, 14 sinf, 31 tartib, 58 oila, 98 turkum, 249 tur, 7 variatsiya va 4 formadan iborat. Otchopar suv ombori algofloraning asosiy qismi Chlorophyta 85 tur (32,69%), Bacillariophyta 75 tur (28,85%) va Cyanophyta 68 tur (26,15%) bo‘limlari qayd etildi. Mazkur uch bo‘lim 228 tur bilan algofloraning 87,69% qismini tashkil etdi. Qolgan bo‘limlardan Euglenophyta 19 tur (7,31%), Dinophyta 7 tur (2,69%), Chrysophyta 5 tur (1,92%) va Xanthophyta 1 tur (0,39%)

qayd etildi. Turlar soni jihatidan *Oscillatoria* (17 tur), *Navicula* (8 tur), *Scenedesmus* (8 tur), *Surirella* (7 tur), *Euglena* (9 tur), *Phormidium* va *Lyngbya* (9 tadan tur), *Phacus* (6 tur), *Pediastrum* (5 tur), *Diatoma*, *Synedra*, *Cymbella* va *Nitzschia* (5 tadan tur) turkumlari ustunlik qildi.

Bobning to‘qqizinchi qismida **Andijon suv ombori algoflorasining taksonomik tahlili** yoritilgan. Bu suv ombori algoflorasini tarkibida 444 tur va tur xillari aniqlandi. Ular 8 bo‘lim, 14 sinf, 31 tartib, 63 oila, 124 turkum, 425 tur, 10 variatsiya va 9 formadan iborat. Andijon suv ombori algoflorasi tarkibida O‘zbekiton algoflorasi uchun birinchi marta quyidagi 10 tur qayd etildi: *Peridinium limbatum* (Stokes) lemm., *Glenodinium ambiguum* Thomp., *Trachelomonas labiata* Teiling, *Trachelomonas sonica* Playf, *Elakatothrix spirochroma* (Reberd.) Hind., *Cosmarium subtruncatellum* Gronbl., *Xanthidium variabile* (Nordst.) W.et. G.S. West, *Chodatella cingula* (Schmit.) Fott., *Coelastrum scabrum* Rein., *Kirchneriella cornuta* Korsch.). Andijon suv ombori algofloraning asosiy qismini Chlorophyta bo‘limi 156 tur (35,14%), Bacillariophyta 124 tur (27,93%) va Cyanophyta 116 tur (26,13%) bo‘limlari tashkil qildi. Mazkur uch bo‘lim jami 396 tur bilan algofloraning 89,19% dan iborat bo‘ldi. Qolgan bo‘limlardan Euglenophyta 23 tur (5,18%), Dinophyta 17 tur (3,83%), Chrysophyta 5 tur (1,13%), Charophyta 2 tur (0,45%) va Rhodophyta 1 tur (0,23%) qayd etildi. Turkumlar orasida *Oscillatoria* (23 tur), *Navicula* (14 tur), *Phormidium* (14 tur), *Lyngbya* (13 tur), *Nitzschia* (10 tur), *Tetraedron* (8 tur), *Euglena* (8 tur) va *Surirella* (9 tur) turlar sonining ko‘pligi bilan tavsiflandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining qiyosiy tahlili”** deb nomlangan, bo‘lib 4 ta bo‘limdan iborat. Bobning birinchi bo‘limida Andijon, Karkidon, Eskiyer, Qo‘rg‘ontepa, Asaka-adir va Otchopar suv omborlari algofloralarining qiyosiy tahlili keltirilgan. Bu bo‘limda barcha monitoring nuqtalarida uchraydigan turlar, turkumlar va oilar soni tahlil qilingan, shundan barcha monitoring nuqtalarida uchraydigan turlar tahlili keltirildi. Qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra, barcha monitoring nuqtalarida uchraydigan turlar 48 ta bo‘lib, Andijon s.o. 444 turga nisbatan 10,81 %, Qo‘rg‘ontepa s.o. 332 turga nisbatan 14,45 %, Eskiyer s.o. 267 turga nisbatan 17,97 %, Otchopar s.o. 260 turga nisbatan 18,46 %, Asaka-adir s.o. 242 turga nisbatan 19,83 %, Karkidon s.o. 186 turga nisbatan 25,80 % ketma-ketlikda ortib borishi kuzatildi (5- jadval).

5-jadval

Barcha monitoring nuqtalarida uchragan umumiy turlar soni va ularning nisbiy ulushi

Suv ombor-lari	Andijon s.o. (444 t.s.)		Eskiyer s.o. (267 t.s.)		Karkidon s.o. (186 t.s.)		Qo‘rg‘on-tepa s.o. (332 t.s.)		Asaka-adir s.o. (242 t.s.)		Otchopar s.o. (260 t.s.)	
	t.s	%	t.s	%	t.s	%	t.s	%	t.s	%	t.s	%
Barcha MN	48	10,81	48	17,97	48	25,80	48	14,45	48	19,83	48	18,46

(izoh: MN-monitoring nuqtalar, t.s.- turlar soni)

Bu holat tur boyligi nisbatan kam bo‘lgan suv omborlarida (Karkidon s.o.)

umumiy turlar ulushining yuqoriligini, aksincha, tur boyligi yuqori bo‘lgan suv omborlarida (Andijon s.o. va Qo‘rg‘ontepa s.o.) esa mahalliy, o‘ziga xos turlar hissasi ortishini ko‘rsatadi. Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasida faqat bitta monitoring nuqtada uchragan turlar, turkumlar va oilar soni tahlil qilingan, shundan faqat bitta monitoring nuqtada uchragan turlar tahlili keltirildi (6- jadval). Tadqiqot hududlari kesimida mahalliy turlar ulushi 0,38-24,71 % oralig‘ida o‘zgardi. Eng yuqori foiz ko‘rsatkichlari Eskiyer (24,71 %) va Qo‘rg‘ontepa (20,18 %) suv omborlarida, eng past % ko‘rsatkich Otchopar s.o. da (0,38 %) qayd etildi.

6- jadval

Tadqiqot hududlari kesimida faqat bitta MNda uchragan (mahalliy) turlarning taqsimlanishi

Tadqiqot hududlari	Mahalliy turlar soni	Umumiy turlar soni	Mahalliy turlar ulushi %
Qo‘rg‘ontepa s.o.	67	332	20,18
Eskiyer s.o	66	267	24,71
Karkidon s.o.	35	186	18,81
Andijon s.o.	25	444	5,63
Asaka-adir s.o.	20	242	8,26
Otchopar s.o.	1	260	0,38

Olingan natijalar suv omborlari algoflorasining hududlar kesimida o'ziga xos tarkibiy farqlarga ega ekanligini hamda ayrim suv omborlarida lokal turlar ulushi yuqoriligini ko'rsatdi.

Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining flora o‘xshashlik koeffitsiyenti Jakkard formulasi bo‘yicha aniqlandi (7- jadval). Hisoblangan FO‘K suv omborlari algoflorasi o‘rtasida o‘xshashlik darajasi 0,23-0,54 oralig‘ida o‘zgarishini ko‘rsatdi.

7-jadval


Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining Jakkard formulasi asosida flora o‘xshashlik koeffitsiyenti (FO‘K)

№	Suv omborlari	1	2	3	4	5	6
1	Andijon s.o.	1	0,33	0,28	0,51	0,45	0,54
2	Eskiyer s.o.	0,33	1	0,32	0,27	0,29	0,30
3	Karkidon s.o.	0,28	0,32	1	0,23	0,27	0,25
4	Qo‘rg‘ontepa s.o.	0,51	0,27	0,23	1	0,34	0,37
5	Asaka-adir s.o.	0,45	0,29	0,27	0,34	1	0,24
6	Otchopar s.o.	0,54	0,30	0,25	0,37	0,24	1

Eng yuqori o‘xshashlik Andijon va Otchopar suv omborlari (FO‘K = 0,54), shuningdek Andijon va Qo‘rg‘ontepa suv omborlari (FO‘K = 0,51) o‘rtasida qayd etildi. Eng past o‘xshashlik esa Karkidon va Qo‘rg‘ontepa suv omborlari (FO‘K = 0,23) hamda Asaka-adir va Otchopar suv omborlari (FO‘K = 0,24) o‘rtasida aniqlandi. Natijalar suv omborlari algoflorasi tarkibining o‘xshashlik darajasi

irrigatsiya tizimi, hududiy joylashuvi va ekologik sharoitlarga bog‘liq holda turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

Bobning ikkincni bo’limida **Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining floristik o‘xshashligini klaster tahlili** keltirilgan (2-rasm). Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining o‘xshashlik darajasini baholashda Sorensen-Chekanovskiy formulasidan $K_s=2c/(a+b)$ foydalanildi. Hosil qilingan FO‘Kning simmetrik matritsasi iyerarxik klaster tahlili uchun asos sifatida qo‘llanildi.




2-rasm. UPGMA usuli asosida suv omborlari algoflorasi o‘xshashligining dendrogrammasi (r = 0,819).

Mazkur formulasi asosida hisoblangan FO‘K bo‘yicha UPGMA klaster tahlili Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining floristik tarkibi ikki asosiy guruhga ajralishini ko‘rsatdi. Birinchi klasterga Andijon, Otchopar, Qo‘rg‘ontepa va Asaka-adir, ikkinchi klasterga esa Eskiyer va Karkidon suv omborlari kirdi. Eng yuqori o‘xshashlik Andijon va Otchopar suv omborlari o‘rtasida (K_s = 0,70), Eskiyer va Karkidon suv omborlari o‘rtasida esa K_s = 0,49 ni tashkil etdi. Klasterlarning D = 0,57 ($K_s \approx 0,43$) darajasida birlashishi suv omborlari algoflorasining floristik tarkibida muayyan tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Bobning uchinchi bo‘limida **Karkidon suv ombori algoflorasining qiyosiy tahlili (M.Yuldasheva 2020-2022 yy)** keltirilgan. Karkidon suv ombori algoflorasining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2020-2022-yillarda M. Yuldasheva tomonidan olib borilgan tadqiqotlar hamda X. Ergashevaning 2014-2025-yillardagi uzoq muddatli monitoring natijalari o‘rtasida algofloraning taksonomik tarkibida sezilarli farqlar mavjud. Jami aniqlangan 186 ta turdan 90 tasi har ikkala tadqiqotda ham uchragan, 96 tasi esa faqat bizning tadqiqotlarimizda qayd etilgan bo‘lib, umumiy o‘xshashlik foizi 48,38 % ni, Jakkard formulasi bo‘yicha FO‘K-0,39 ni tashkil etdi. Ushbu natija suv ombori algoflorasining vaqt davomida dinamik o‘zgaruvchan tizim ekanligini hamda qisqa

muddatli va uzoq muddatli monitoring natijalari o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatadi.

Mazkur bobning to‘rtinchi bo‘limida **Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasini O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning ayrim suv omborlari algofloralari bilan qiyosiy tahlili** keltirilgan. Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasi turlar soni boshqa 12 ta suv omborlari algofloralari turlar soni bilan qiyosiy tahlil qilindi va flora o‘xshashlik koeffitsiyenti Jakkard formulasi bo‘yicha aniqlandi (3- rasm).



3-rasm. Farg‘ona vodiysi suv ombori algoflorasini boshqa suv omborlari algofloralari bilan Jakkard formulasi bo‘yicha flora o‘xshashlik koeffitsiyentlari

Farg‘ona vodiysi suv ombori algoflorasi bilan FO‘K bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichni Qayroqqum (0,32) va Chordara (0,29) suv omborlari tashkil qildi. Bu xolat Andijon, Asaka-adir, Otchopar suv omborlaridan chiqqan suv (Qoradaryo orqali) Qayroqqum va Chordara suv omborlariga quyilishi ya’ni suv manbai bitta ekanligi bilan izohlanadi. Eng past ko‘rsatkichni esa Uchqizil (0,11) va To‘dako‘l (0,04) suv ombolari algoflorasi tashkil qildi. Bu xolat ikki suv omborining geografik jixatdan uzoqda joylashganligi va suvining mineralizatsiya darajasi yuqori ekanligi (1600-2000 mg/litr) bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning **“Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining mavsumiy o‘zgarishlari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobi 6 ta bo‘limdan iborat. Bu bobda turlar tarkibining mavsumiy o'zgarishlari tahlillari yoritilgan (8-jadval).

8-jadval

Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasi turlar sonining yil mavsumlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari

Suv omborlari	Bahor tur soni va %	Yoz tur soni va %	Kuz tur soni va %	Qish tur soni va %
Andijon	312 (70,27%)	330 (74,32%)	327 (73,64%)	52 (11,71%)
Eskiyer	203 (76,02%)	202 (75,65%)	184 (68,91%)	27 (10,11%)
Karkidon	146 (78,49%)	143 (76,88%)	144 (77,41%)	22 (11,82%)
Qo‘rg‘ontepa	251 (75,14%)	246 (73,65%)	244 (73,05%)	29 (8,68%)
Asaka-adir	179 (73,96%)	180 (74,38%)	176 (72,72%)	33 (13,63%)

Otchopar	186 (71,53%)	201 (77,3%)	192 (73,84%)	38 (14,61%)
O‘rtacha %	74,23	75,36	73,26	11,76

Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining mavsumiy tarkibi bahor, yoz va kuz fasllarida deyarli barqaror saqlanib, o‘rtacha ko‘rsatkichlar mos ravishda 74,23; 75,36 va 73,26 % ni tashkil etdi. Turlar sonining eng yuqori ulushi yoz mavsumida qayd etilgan bo‘lsa, qish faslida keskin kamayib, o‘rtacha 11,76 % ni tashkil etdi. Bundan tashqari, har bir mavsumning (bahor, yoz va kuz) o‘ziga xos bo‘lgan turlari alohida qayd etildi.

Dissertatsiyaning “**Algofloraning ekologik guruhlari**” deb nomlangan beshinchi bobi 3 ta bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limida **Algofloraning plankton, plankton-bentos, bentos va perifiton guruhlari** haqidagi tadqiqot natijalari yoritilgan. Aniqlangan algoflora turlari plankton, plankton-bentos, bentos va perifiton guruhlari bo‘yicha tahlil qilinib, barcha suv omborlarida plankton-bentos guruhiga mansub turlar ustunlik qilishi aniqlandi. Ularning ulushi suv omborlari kesimida 42,7-48,5 % oralig‘ida o‘zgarib, algofloraning asosiy qismini tashkil etdi. Ikkinchi o‘rinda plankton guruhlari (25,6-31,8 %), uchinchi o‘rinda perifiton (16,5-19,9 %) va bentos (5,4-9,9 %) turlari qayd etildi. Plankton-bentos guruhining ustunligi suv omborlarida suv massasining aralashishi va suvo‘tlarning vertikal taqsimlanish xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, bentos guruhlarining nisbatan kam ulushi suv tubi sharoitlari va unga moslashgan turlar bilan izohlanadi. Natijada Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasida ekologik jihatdan keng moslashuvchan plankton-bentos turlar dominant mavqega ega ekanligi asoslandi.

Mazkur bobning ikkinchi bo‘limida **Farg‘ona vodiysi suv ombori algoflorasining haroratga bog‘liq taqsimlanishi** yoritilgan. Algofloraning haroratga bog‘liq taqsimlanishi stenoterm (kriofil, mezofil, termofil) va evriterm guruhlar asosida tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko‘ra, barcha suv omborlarida mezofil guruh turlari ustunligini ko‘rsatdi. Ularning ulushi (Andijon s.o. 54,54%, Eskiyer s.o. 47,94%, Karkidon s.o. 48,38%, Qo‘rg‘ontepa 54,51%, Asaka-adir s.o. 52,89%, Otchopar s.o. 49,23%) suv omborlari kesimida 49,23-56,45 % oralig‘ida o‘zgarib, algofloraning asosiy qismini tashkil etdi. Termofil turlar 21,5-27,69 %, kriofil turlar 9,68-12,38 % va evriterm turlar 9,02-13,23 % diapazonda qayd etildi. Mezofil guruhning ustunligi suv omborlarida yil davomida 9-18°C harorat sharoitlarining uzoq muddat saqlanishi bilan izohlanadi.

Bobning uchinchi bo‘limida **Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining suvning sho‘rlanganligi bo‘yicha taqsimlanishi** yoritilgan. Suv omborlarida algofloradagi turlar sonining suvning sho‘rlanganligi bo‘yicha taqsimlanishi sho‘rtob suvga xos turlar hamda chuchuk suvga xos turlar guruhlariga ajratilgan holda tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko‘ra, barcha suv omborlarida chuchuk suvga xos turlar ustunligini ko‘rsatdi. Ularning ulushi 70,76-75,0 % oralig‘ida bo‘lib, o‘rtacha 73 % ni tashkil etdi, sho‘rtob suvga xos turlar ulushi esa 25,0-29,23 % diapazonda qayd etildi. Natijalar Farg‘ona vodiysi suv omborlarida chuchuk suv sharoitlari ustun ekanligini, shu bilan birga sho‘rtob suvga moslashgan turlar ulushining mavjudligi mineralizatsiya gradientining shakllanganligini ko‘rsatdi.

Dissertatsiyaning **“Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlarining gidrokimyoviy tahlili”** deb nomlangan oltinchi bobi 4 ta bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limida Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari suv sifatini suvda erigan kislorod ko‘rsatkichlari asosida baholash natijalari yoritilgan. Suv namunalari Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi instituti Geoekologik kimyo laboratoriyasida tahlil qilinib, suvning ekologik va sanitariya holatini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar: suvda erigan kislorod, KBE_5, KKE hamda organik modda miqdori aniqlandi. Gidrokimyoviy tahlillar amaldagi davlat standartlari va sanitariya me'yorlari asosida amalga oshirildi. Farg‘ona vodiysi suv omborlari erkin kislorod ko‘rsatkichlari asosida baholandi, natijalariga ko‘ra, suvda erigan kislorod miqdori 5,53-8,31 mgO_2/dm^3 oralig‘ida o‘zgarib, barcha suv omborlarida amaldagi sanitariya-gigiyenik normativlarga to‘liq mos keladi. Eng yuqori ko‘rsatkich Asaka-adir suv omborida (8,31 mgO_2/dm^3), eng past ko‘rsatkich esa Otchopar suv omborida (5,53 mgO_2/dm^3) qayd etildi. Barcha tadqiqot hududlarida erkin kislorod miqdorining 4,0 mgO_2/dm^3 dan yuqori bo‘lishi suv havzalarida kislorod rejimining barqarorligini, aerob jarayonlarning faol kechishini hamda gidrobiontlar uchun qulay ekologik sharoit mavjudligini ko‘rsatdi.

Bobning ikkinchi bo‘limida **Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari suv sifatini kislorodga bo‘lgan biokimyoviy ehtiyoj (KBE_5) ko‘rsatkichlari asosida baholash** natijalari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, KBE_5 qiymatlari 0,09-1,77 mgO_2/dm^3 oralig‘ida o‘zgarib, barcha suv omborlarida organik ifloslanish darajasining past ekanligini ko‘rsatdi. Eng past KBE_5 ko‘rsatkichi Eskiyer suv omborida (0,09 mgO_2/dm^3), eng yuqori ko‘rsatkich esa Asaka-adir suv omborida (1,77 mgO/dm^3) qayd etildi. Barcha tadqiqot hududlarida KBE_5 qiymatlarining 2 mgO_2/dm^3 dan past bo‘lishi suv havzalarida organik yuklamaning pastligi, aerob parchalanish jarayonlarining me’yorida kechishi hamda gidrobiontlar, jumladan suvo‘tlarning rivojlanishi uchun qulay ekologik sharoit mavjudligini ko‘rsatdi.

Bobning uchinchi bo‘limida **Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari suv sifatini kislorodga bo‘lgan kimyoviy ehtiyoj (KKE) ko‘rsatkichlari asosida baholash** natijalari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, KKE qiymatlari 2,07-12,45 mgO_2/dm^3 oralig‘ida o‘zgarib, barcha suv omborlarida amaldagi me’yoriy ko‘rsatkichlardan past ekanligi aniqlandi. Eng past KKE qiymati Karkidon suv omborida (2,07 mgO_2/dm^3), eng yuqori qiymat esa Asaka-adir suv omborida (12,45 mgO_2/dm^3) qayd etildi. Barcha MNda KKE ko‘rsatkichlarining 15 mgO_2/dm^3 dan past bo‘lishi suv havzalarida oksidlanadigan organik va noorganik moddalar miqdorining kamligini hamda kimyoviy ifloslanish darajasining past ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar suv omborlarida organik yuklama yuqori emasligini, suv ekotizimlarining ekologik barqarorligi saqlanib qolganligini va suv sifatining sanitariya-gigiyenik talablar darajasida ekanligini tasdiqladi.

Bobning to‘rtinchi bo‘limida **Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari suv sifatini organik moddalar ko‘rsatkichlari asosida baholash** natijalari yoritilgan. Tadqiqotlar organik moddalar miqdori 0,78-4,68 mg/dm^3 oralig‘ida o‘zgarishini ko‘rsatdi. Eng past ko‘rsatkich Karkidon (0,78 mg/dm^3), eng yuqori ko‘rsatkich esa Asaka-adir (4,68 mg/dm^3) suv omborida qayd etildi. Organik moddalar miqdorining o‘rtacha qiymati 2,66 mg/dm^3 ni tashkil etib, suv omborlarida organik


yuklama asosan o‘rtacha darajada ekanligi aniqlandi. Karkidon suv omborida nisbatan qulay ekologik holati mavjudligi, Asaka-adir, Eskiyer va Otchopar suv omborlarida antropogen ta’sir nisbatan kuchliroq ekanligi qayd etildi.

Dissertatsiyaning **Farg‘ona vodiysi suv omborlari suv sifatini indikator-saprob suvo‘tlar asosida baholash** deb nomlangan yettinchi bobi 5 ta bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limida **Farg‘ona vodiysi suv omborlaridan aniqlangan indikator-saprob suvo‘tlar va ularning taksonomik tahlili** natijalari yoritilgan. Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasi tarkibida aniqlangan 137 ta indikator-saprob turlar quyidagi bo‘limlar kesimida taqsimlangan: Cyanophyta 32 tur (23,36%), Xanthophyta 1 tur (0,73%), Chrysophyta 5 tur (3,65%), Bacillariophyta 44 tur (32,11%), Dinophyta 5 tur (3,65%), Euglenophyta 24 tur (17,52%), Chlorophyta 26 tur (18,98%). Bu bo‘limlar 12 ta sinf, 16 ta tartib, 33 ta oila va 62 ta turkumga mansub bo‘lib, suv havzalarining ekologik-sanitariya holatini baholash uchun muhim bioindikatorlar hisoblanadi.

Bobning ikkinchi bo‘limi **Saprob-indikator suvo‘tlar asosida suv sifatini baholashning bioindikatsion modeli va uning tahliliy asoslariga** bag‘ishlangan. Saprob-indikator suvo‘tlar asosida suv sifatini bioindikatsion baholash modelidan foydalanib, unda indikator turlarning uchrash darajasi, saprobiologik valentligi va Pantle-Buk formulasi asosida hisoblangan saproblik indeksi integratsiyalashgan holda tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko‘ra, Farg‘ona vodiysi suv omborlarida umumiy saproblik indeksining qiymatlari 1,72-1,83 oralig‘ida o‘zgarib, Andijon suv omborida 1,72, Qo‘rg‘ontepa va Asaka-adir suv omborlarida 1,77, Karkidon va Otchopar suv omborlarida 1,80 hamda Eskiyer suv omborida 1,83 ni tashkil etdi. Saprobiologik tahlillar natijasida barcha suv omborlari 3-sinf (qoniqarli toza), 3a-razryad (yetarlicha toza) suvlar toifasiga mansubligi hamda β^{I}- 1 darajali mezosaprob zonaga tegishli ekanligi aniqlandi.

Mazkur bobning uchinchi bo‘limida **Saprob-indikator suvo'tlarning saproblik kategoriyalar bo'yicha ulushini aniqlashning ilmiy-metodik yondashuvi** natijalari yoritilgan. Suv sifatini bioindikatsion baholash uchun aralash saproblik valentlikka ega indikator-suvo‘tlarni hisobga olishning 0,5:0,5 ulushli taqsimlash tamoyiliga asoslangan ilmiy-metodik yondashuvi taklif etildi. Mazkur yondashuv Sladechek saprobiologik tizimi hamda Membership Degree (Fuzzy) nazariyasining matematik tamoyillariga asoslanib, aralash saproblik kategoriyalarni ikki qo‘shni asosiy kategoriya o‘rtasida mutanosib taqsimlashni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv indikator turlarni hisobdan chiqarmasdan, ularning biologik xususiyatlarini saqlab qolgan holda bioindikatsion baholash aniqligini oshirish imkonini berdi. Farg‘ona vodiysi suv omborlaridan aniqlangan 137 ta saprob-indikator suvo‘tning dastlabki tahlilida 88 ta (64,2 %) sof va 49 ta (35,8 %) aralash saproblik valentlikka ega tur qayd etildi. Taklif etilgan yondashuv asosida qayta taqsimlash natijasida β-mezosaprob guruhining ulushi 75,5 ta (55,11 %), α-mezosaprob guruhi 27 ta (19,71 %), oligosaprob guruhi 25,5 ta (18,61 %), ksenosaprob guruhi 6 ta (4,38 %) va polisaprob guruhi 3 ta (2,19 %) ni tashkil etdi. Qayta taqsimlash natijalari β-mezosaprob indikatorlarning ustunligini hamda suv omborlarida o‘rtacha organik yuklama bilan tavsiflanuvchi saprobiologik holat ustun ekanligini ko‘rsatdi.

Bioindikatsion baholashni soddalashtirish maqsadida asosiy saproblik kategoriyalari funksional jihatdan uchta bioindikatsion guruhga birlashtirildi. Natijada β-mezosaprob indikatorlar 76,5 ta (55,84 %), evtrof sharoit indikatorlari 32,5 ta (23,72 %) va toza suv indikatorlari 28 ta (20,44 %) ni tashkil etdi (4- rasm). β-mezosaprob indikatorlarning ustunligi Farg‘ona vodiysi suv omborlarida β-mezosaprob saprobiologik sharoit ustun ekanligini ko‘rsatdi. Evtrof va toza suv indikatorlarining ulushi esa suv omborlarida ekologik sharoitlarning turlicha shakllanganligini tasdiqladi.



4-rasm. Saprob-indikator suvo‘tlarning 0,5:0,5 ulushli taqsimlash tamoyili asosida bioindikatsion guruhlar bo‘yicha taqsimlanishi.

Taklif etilgan ilmiy-metodik yondashuv aralash saproblik valentlikka ega turlarni standartlashtirilgan tarzda hisobga olish orqali suv sifatini bioindikatsion baholashning ishonchliligini oshirish imkonini berdi.

Bobning to‘rtinchi bo‘limi **indikator-saprob turlarning tadqiqot hududlari bo‘yicha tahliliga** bag‘ishlangan. Tahlil natijalari suv omborlari o‘rtasida sezilarli saprobiologik differensiallashuv mavjudligini ko‘rsatdi. Indikator turlar soni Andijon suv omborida 110 ta, Qo‘rg‘ontepada 108 ta, Otchoparda 107 ta, Asaka-adirda 104 ta, Eskiyerda 89 ta va Karkidonda 66 tani tashkil etdi. Barcha suv omborlarida β-mezosaprob guruh ustunligi aniqlanib, o‘rtacha organik yuklama va mezosaprob sharoitlar hukmronligi qayd etildi. Indikator turlarning saproblik spektr bo‘yicha taqsimlanishi hududlarning ekologik holati turlicha ekanligini ko‘rsatdi. Andijon suv ombori nisbatan barqaror, Qo‘rg‘ontepa s.o. ekologik gradientlari yaqqol shakllangan, Karkidon esa indikator turlar sonining kamligi va yuqori saproblik elementlar uchrashi bilan nisbatan tarang ekologik holatga ega ekanligi aniqlandi.

Bobning beshinchi bo‘limida **Farg‘ona vodiysi suv omborlari saprob-indikator suvo‘tlarining saproblilik indeksini (Si) yil fasllari bo‘yicha o‘zgarishi** natijalari yoritilgan. Saprob-indikator suvo‘tlarning saproblik indeksini yil fasllari bo‘yicha tahlil qilish natijasida Farg‘ona vodiysi suv omborlarida suv sifatining mavsumiy dinamikasi aniqlandi. Umumiy saproblik indeks bahorda 1,84, yozda 1,78, kuzda 1,77 va qishda 1,92 ni tashkil etib, barcha fasllarda suvlarning β^{I}- 1- darajali mezosaprob zonaga mansubligi hamda 3-sinf (qoniqarli

toza), 3a-razryad (yetarlicha toza) darajasida saqlanishi aniqlandi. Saproblik indeksning eng yuqori qiymati qishda, eng past qiymati esa kuzda qayd etildi. Mavsumiy o‘zgarishlarda Euglenophyta (Si=2,31-2,40) va Cyanophyta (Si=2,20-2,26) bo‘limlari yetakchi indikator guruhlar sifatida namoyon bo‘lib, umumiy indeksning shakllanishiga asosiy hissa qo‘shdi. Bacillariophyta (Si=1,68-1,86) va Chlorophyta (Si=1,94-2,16) esa suv ekotizimining ekologik holatini tavsiflovchi barqaror komponentlar sifatida qayd etildi.

XULOSA

Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari algoflorasi va ularning suv ekologiya-sanitariya holatini baholashdagi ahamiyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. 2014-2025 yillarda olib borilgan kompleks tadqiqotlar natijasida Farg‘ona vodiysi ayrim suv omborlari algoflorasi tarkibida 9 bo‘lim, 19 sinf, 39 tartib, 80 oila, 161 turkumga mansub 657 ta tur va tur xillari aniqlanib, ularning taksonomik asosini Bacillariophyta (213 tur, 32,4 %), Chlorophyta (198 tur, 30 %) va Cyanophyta (164 tur, 25 %) bo‘limlari tashkil etishi ilmiy jihatdan asoslandi. Ilk bor O‘zbekiston algoflorasi uchun avval qayd etilmagan 12 tur (Cyanophyta- 2 tur, Dinophyta- 2 tur, Euglenophyta- 2 tur, Chlorophyta- 6 tur) aniqlandi.

2. Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasida yetakchi 10 ta oila 94-218 ta turni birlashtirib, suv omborlari bo‘yicha 40,06-50,53 % ni tashkil etdi (*Oscillatoriaceae* 19-60, *Scenedesmaceae* 9-25, *Oocystaceae* 12-22), shuningdek, 13 ta yetakchi turkum 69-137 ta turni birlashtirib, algofloraning 27,40-37,09 % ni tashkil qildi (*Oscillatoria* 8-23, *Navicula* 7-14, *Euglena* 5-9). Yetakchi oilalar va turkumlarning turlarga boyligi Farg‘ona vodiysi suv omborlarini O‘zbekistondagi alohida ahamiyatga ega bo'lgan algologik hudud sifatidagi maqomini ko'rsatadi.

3. Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining 9 ballik shkala bo‘yicha uchrash darajalari tahliliga ko‘ra, 5 ballik (tez-tez uchraydigan) turlar soni 57-134 ta oralig‘ida, 7 ballik (ko‘p uchraydigan) turlar 48-116 ta oralig‘ida bo‘lib, ushbu guruhlar asosiy qismini tashkil etishini, 1 ballik (bir dona) turlar 14-50 ta hamda 9 ballik (juda ko‘p, massa) turlar 17-40 ta oralig‘ida qayd etilib, nisbatan cheklangan ulushga ega ekanligini ko‘rsatadi.

4. Sorensen-Chekanovskiy formulasida flora o'xshashlik koeffitsiyenti asosidagi UPGMA klaster tahlili Farg‘ona vodiysi suv omborlari algoflorasining floristik tarkibi ikkita aniq ajralgan klasterda shakllanganligini ko'rsatdi. Dendrogrammada ushbu klasterlarning yakuniy birlashishi D = 0,57 masofada, ya'ni $K_s \approx 0,43$ o'xshashlik darajasida kuzatildi. I klaster asosini Andijon va Otchopar suv omborlari tashkil etdi ($K_s = 0,70$; D = 0,30). II klaster Eskiyer va Karkidon suv omborlaridan tashkil topdi ($K_s = 0,49$; D = 0,51).

5. Farg‘ona vodiysi suv ombori algoflorasini O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning 12 ta suv omborlari algofloralari bilan Jakkard formulasi bo‘yicha flora o‘xshashlik koeffitsiyentlari aniqlandi, eng yuqori ko‘rsatkichni Qayroqqum (0,32) va Chordara (0,29) suv omborlari tashkil qildi. Bu xolat Andijon suv omboridan chiqqan suv Qayroqqum va Chordara suv omborlariga quyilishi ya’ni suv manbai bitta ekanligi bilan izohlanadi. Eng past ko‘rsatkichni esa Uchqizil (0,11) va

To‘dako‘l (0,04) suv ombolari algoflorasi tashkil qildi. Bu xolat ikki suv omborining geografik jixatdan uzoqda joylashganligi va suvining mineralizatsiya darajasi yuqori ekanligi (1600-2000 mg/litr) bilan izohlanadi.

6. Yil mavsumlari davomida turlarning uchrashi bahorda 74,23 %, yozda 75,36 % va kuzda 73,26 % ni tashkil etib, deyarli o‘xshash natijalar kuzatildi, qishda esa turlarning uchrashi 11,76 % gacha keskin kamaydi. Algofloraning bunday mavsumiy dinamikasi suv harorati, yorug‘lik intensivligi va gidrokimyoviy ko‘rsatkichlarning mavsumiy o‘zgarishlari fonida kuzatildi.

7. Suv omborlari algoflorasi plankton, plankton-bentos, bentos va perifiton guruhlari bo‘yicha tahlil qilinib, barcha suv omborlarida plankton-bentos guruhiga mansub turlar (42,7-48,5 %) ustunlik qilishi aniqlandi. Ushbu guruhning ustunligi suv omborlarida suv massasining aralashishi va suvo‘tlarning vertikal taqsimlanish xususiyatlari bilan izohlanadi, bentos turlarining nisbatan kam ulushi esa suv tubi sharoitlari va unga moslashgan turlarning ekologik xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

8. Algofloraning haroratga munosabati bo‘yicha taqsimlanishi tahlil qilinib, barcha suv omborlarida mezofil turlar ustunligi aniqlandi. Ularning ulushi suv omborlari kesimida 49,23-56,45 % oralig‘ida o‘zgarib, algofloraning asosiy qismini tashkil etdi. Termofil turlar 21,5-27,69 %, kriofil turlar 9,68-12,38 % hamda evriterm turlar 9,02-13,23 % oralig‘ida qayd etildi. Mezofil turlarning ustunligi suv omborlarida yil davomida kuzatilgan 9-18 °C harorat diapazoni bilan ekologik jihatdan mos keladi.

9. Suvning sho‘rlanganligiga munosabati bo‘yicha olib borilgan tahlillar barcha suv omborlarida chuchuk suvga xos turlar 73 % ni tashkil etib, ustunlik qilishini ko‘rsatdi, sho‘rtob suvga moslashgan turlar ulushi esa 27 % dan iborat bo‘ldi. Bu natijalar Farg‘ona vodiysi suv omborlarining asosan chuchuk suv ekotizimlari ekanligini ko‘rsatish bilan birga, algoflora tarkibida mineralizatsiya gradientiga mos ekologik differensiallashuv mavjudligini ham ifodalaydi.

10. Farg‘ona vodiysi suv omborlarining gidrokimyoviy holati ilk bor asosiy gidrokimyoviy ko‘rsatkichlar asosida tadqiq etilib, erkin kislorod, organik moddalar, KBE_5 va KKE ko‘rsatkichlari asosida baholangan hamda suv muhitining ekologik holati O'zbekiston Respublikasidagi SanQvaM № 0172-04 va SanQvaM № 0318-15 normativlari bo‘yicha “me’yoriy talablarga mos” holatda ekanligi va algoflora rivojlanishi uchun qulay gidrokimyoviy sharoit mavjudligi aniqlandi.

11. Suv omborlaridan aniqlangan 137 tur saprob-indikator suvo‘tlar tahliliga ko‘ra, β-mezosaprob guruh vakillari ustunlik qildi. Saproblilik indeksi (Si) 1,72-1,83 oralig‘ida bo‘lib, suv sifati 3-sinf, 3a-razryad, ekologik-saprobiologik zona esa β^{I}-1 darajali β-mezosaprob zona sifatida baholandi. Bu holat suv omborlarida o‘rtacha darajadagi organik yuklama mavjudligini ko‘rsatadi.

12. Indikator-saprob suvo‘tlarni bioindikatsion baholashda aralash saproblik kategoriyalarni 0,5:0,5 ulushli taqsimlash tamoyiliga asoslangan ilmiy-metodik yondashuv ishlab chiqildi. Yondashuv Sladechek saprobiologik tizimi va Membership Degree Fuzzy nazariyasi bilan asoslandi. Mazkur ilmiy-metodik yondashuv aralash saproblik valentlikka ega indikator turlarni hisobdan chiqarmagan va ularni bitta kategoriyaga sun’iy ravishda kiritmagan holda, ikki sof

saproblik kategoriya o‘rtasida mutanosib aks ettirish imkonini berdi. Natijada suv omborlari algoflorasining saprobiologik tuzilishini aniqroq tavsiflash va bioindikatsion baholashda bunday indikatorlarni standartlashtirilgan tarzda hisobga olish imkoniyati yaratildi.

РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА DSC.03/2025.27.12.B.01.15 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА

НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЭРГАШЕВА ХИЛОЛАХОН ЭРКИНЖОНОВНА

АЛЬГОФЛОРА НЕКОТОРЫХ ВОДОХРАНИЛИЩ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ В ОЦЕНКЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО И САНИТАРНОГО СОСТОЯНИЯ ВОД

03.00.16 - Гидробиология, 03.00.05 - Ботаника

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора наук (DSc) по биологическим наукам

Ташкент- 2026

Тема диссертации доктора биологических наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2025.3.DSc/B284.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.nuu.uz) и в Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:	**Алимжанова Холисхон** доктор биологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Камилов Бахтияр Ганиевич** доктор биологических наук, профессор
	Мавлонов Хударган доктор биологических наук, профессор
	Наралиева Насибахон Мамановна доктор биологических наук, профессор
Ведущая организация:	Ферганский государственный университет

Защита диссертации состоится «04» декабря 2026 года в 14-00 часов на заседании Разового научного совета при Научном совете DSc.03/2025.27.12.B.01.15 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская дом 4. Корпус Биологического и экологического факультета Национального университета Узбекистана, 2-й этаж, комната 203. Тел. (+99871) 227-15-44.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрировано под №314). (Адрес: 100174, г.Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 246-67-72).

Автореферат диссертации разослан «20» ноября 2026 года
(Реестр протокола рассылки № 25 от «20» ноября 2026 года)

Х.С.Ешова
Председатель разового Научного совета по присуждению ученых степеней, д.б.н., профессор

Ж.А.Мирзаев
Ученый секретарь разового Научного совета по присуждению ученых степеней, PhD., доцент

Б.Т.Жобборов
Заместитель председателя семинара при разовом Научном совете по присуждению ученых степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора наук (DSc)

Актуальность и необходимость темы диссертации. Во всём мире охрана пресноводных ресурсов, оценка их экологического состояния и совершенствование систем их биологического мониторинга является одним из приоритетных направлений, имеющих глобальное значение. А также, изучение состава и функциональных особенностей альгофлоры водоёмов рассматривается не только как важная основа для сохранения биологического разнообразия, но и как научная база для обеспечения питьевого водоснабжения, ирригации и экологической безопасности. В результате роста численности населения, расширения промышленной и сельскохозяйственной деятельности, изменения климата и усиления антропогенного давления нарушается естественное равновесие водных экосистем. Поэтому, использование методов биоиндикации на основе водорослей, в частности индикаторно-сапробных видов, для надёжной оценки экологического состояния водохранилищ приобретает всё более актуальное значение.

В мире одним из важных направлений биоиндикационных исследований является альгологические исследования. В современных альгологических исследованиях, на основе комплексных таксономических, экологических, сапробологических свойств альгофлоры водоёмов и их связи с гидрохимическими факторами, разрабатываются различные подходы к оценке экологического состояния водоёмов. А также, научные исследования требуют определения состояния альгофлоры в крупных водоёмах, подверженных сильному воздействию антропогенных факторов, и оценки степени их трансформации. В этой связи, водохранилища, благодаря обильности количества видов альгофлоры, разнообразию жизненных форм, наличию реофильных и лимнофильных групп, а также присутствию видов, принадлежащих к различным экологическим группам, имеют особое значение среди водных объектов. Однако вопросы региональной дифференциации альгофлоры водохранилищ, расположенных в различных природно-географических зонах, экологической значимости индикаторно-сапробных видов и их роли в мониторинге качества воды остаются актуальными. В связи с этим, углубленное изучение таксономического состава альгофлоры водохранилищ Ферганской долины и их роли в оценке эколого-санитарного состояния воды имеет важное научно-практическое значение.

В Узбекистане рациональное использование водных ресурсов, обеспечение экологической устойчивости водных объектов и развитие системы биологического мониторинга определены в качестве одного из приоритетных направлений. В стране в сферах водного хозяйства, экологии, сельского хозяйства, рыбоводства и ирригации проводятся широкомасштабные реформы по усовершенствованию показателей качества водных объектов. В данном направлении на основе реализованных последовательных мероприятий достигнуты определённые результаты, в

частности, в выявлении источников и масштабов антропогенного загрязнения водоёмов, и их ликвидации, применении водорослей для очистки сточных вод. В Указе Президента Республики Узбекистан №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы»[2] от 28 января 2022 года, определены задачи по охране водных источников, коренному улучшению обеспечения населения чистой питьевой водой, развитию объектов ирригационной сети. Для выполнения поставленных задач определение современного таксономического состава альгофлоры водохранилищ, изучение закономерностей распространения их индикаторно-сапробных видов и раскрытие возможностей их использования для оценки эколого-санитарного состояния воды имеет важное научно-практическое значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит решению задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-199 «О мерах по обеспечению экологической устойчивости путём дальнейшего повышения уровня озеленения в республике и последовательной реализации общенационального проекта «Яшил макон» от 23 ноября 2023 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-5 «О мерах по совершенствованию системы управления водными ресурсами и повышению эффективности их использования в низовом звене» от 5 января 2024 года, Указе Президента Республики Узбекистан № УП-74 «Об определении приоритетных направлений внедрения и развития современной системы управления в водном хозяйстве» от 7 мая 2024 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-250 «Об утверждении программы управления водными ресурсами и развития ирригационного сектора в Республике Узбекистан на 2025-2028 годы» от 15 августа 2025 года, Указе Президента Республики Узбекистан №УП-21 «О дополнительных мерах по последовательному продолжению и выведению на новый этап реформ в рамках приоритетных направлений развития страны до 2030 года» от 16 февраля 2026 года, а также других нормативно-правовых документов, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики V. «Сельское хозяйство, биотехнологии, экология и охрана окружающей среды».

Обзор зарубежной литературы по теме диссертации.

В ведущих мировых научных центрах и университетах ведутся широкомасштабные исследования по изучению альгофлоры водных экосистем и её использованию в целях биоиндикации. В частности, достигнуты важные научные результаты в Wageningen University Research (Нидерландия) - в области водной экологии и мониторинга качества воды; в

[2]Указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 28 января 2022 года

Uppsala University (Швеция) - в области биологического разнообразия и эволюционной экологии; в Кембриджском и Оксфордском университетах (Великобритания) - в области пресноводных экосистем и экологического моделирования. В Институте гидробиологии Китайской академии наук проводятся фундаментальные исследования по таксономии, экологии и биоиндикации пресноводных водорослей. Проводимые в этих научных центрах исследования способствуют формированию теоретических и практических основ оценки экологического состояния водоёмов на основе биологических индикаторов.

В зарубежных научных школах уделяется особое внимание определению индикаторных свойств водорослей и совершенствованию методологии оценки качества воды. Разработанная Kolkwitz и Marsson сапробиологическая концепция впоследствии была усовершенствована Sladechek, Zelinka и Marvan, и стала одним из признанных в международном масштабе методов биологического мониторинга. Ван Дам и соавторы, посредством систематизации экологических превосходств диатомовых водорослей и их отношений к факторам среды, разработали новые критерии экологической классификации. А также, учёными Колорадского университета в Боулдере, Висконсинского университета в Мадисоне, Хельсинкского и Копенгагенского университетов проведены многочисленные фундаментальные и прикладные исследования по изучению влияния эвтрофикации, изменения климата и антропогенного давления на состав альгофлоры.

